

Surxondaryoda hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasi ish boshladi



O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Surxondaryo viloyati hokimligi hamda Elektron kooperatsiya markazi bilan hamkorlikda tashkil etilgan hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasi o'z ishini boshlandi.

Termiz tumanidagi "Termiz xalqaro savdo markazi" Termiz erkin savdo zonasida o'tkazilayotgan sanoat yarmarkasida qishloq xo'jaligi, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish materiallari, dorivor o'simliklarni qayta ishlash, oziq-ovqat sanoati sohalarida faoliyat yurituvchi qariyb 200 dan ziyod surxondaryolik, 300 dan ortiq boshqa viloyatlar sanoat korxonalari o'zlarining import o'rnnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlari bilan ishtirok etmoqda.

Yarmarkaning ochilish marosimida Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, vazirliklar, idoralar, tarmoq birlashmalari, xolding kompaniyalari, shuningdek, ishbilarmon doiralar va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Viloyat hokimi tadbirni oolib berar ekan, respublikamizda ishlab chiqaruvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali sanoat salohiyatini rivojlantirish va ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilib, samarali choralar ko'rilib qo'shilishi haqidagi ta'kidlasi etdi.

Yarmarkada asosiy e'tibor mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash, sanoatda kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini o'rganib chiqish, kelgusida sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'yish va ish ko'lagini kengaytirish uchun buyurtmalar portfelini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasi ertaga ham davom etadi. Tadbirda ishtirok etish uchun ishlab chiqarish korxonalari, kichik va o'rta biznes vakillari hamda xususiy tadbirkorlar taklif qilinadi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)